



## PSIXOLOGNING PSIXOKORREKSIN ISHLARI

**Abdurahmonov Sharifjon To'lqin o'g'li**

*Samarqand davlat chet tillar instituti magistranti*

**A.I.Saidov**

*Samarqand davlat chet tillar instituti*

*Pedagogika va psixologiya kafedrasи mudiri*

*Ps.f.d., (DSc) dotsent*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada psixokorreksion ishlar hamda psixologik xizmatning O'zbekistonda paydo bo'lishi , ijtimoiy psixologik metodlar haqida to'xtalgan.

**Kalit so'zlar:** Psixokorreksiya, baynalminal, psixatriya, ong , xotira, ruxiyat

Bu sohalar bilan bir qatorda yoki, real hodisalar va inson turlarini, yoki, bilimlar sohasi yoinki maxsus kurslarni ifodalovchi umuman kutilmagan so'z birikmalari yuzaga kelmoqda, xususan,: qarzdor, qarz beruvchi, qimmatli qog'ozlar egasi, narx-navo, so'roq qilish, futbolchilar, rassom, diktatura, bezori, kasbiy daraja, ishonch, e'tiqod, jinsiy munosabatlar, murabbiylik faoliyati, muloqot, ishoratlar, hissiy kuyish, muxbirlik psixologik madaniyati, o'qituvchilik faoliyati, bir tarafmalilik, dizayn, bolalar o'yini, baxtsizlik, hissiy munosabatlar, ayol xiyonati, janjal, yutuqqa erishish, sayohat, millatga tegishlilik, qasd qilish hulq-atvori, ta'sir o'tkazish, ishdan bo'shatish, bolalar ijodiyoti, tarbiyasi og'ir o'smirlar, aqli zaif o'quvchi, bayram, tabassum, jizzakilik, er-xotinlar, telefon so'zlashuvlari, qotil psixologiyasi shular jumlasidandir. An'anaviy psixologik fanlar - umumiyl psixologiya, ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, muloqot psixologiyasi, yosh va pedagogik psixologiya chuqur o'zgarishlarga uchramoqda. Bundan farqli o'laroq, amaliy psixologiya aniq bir talabgor bilan ish yuritadi, noma'lumlikni ilmiy tarzda ochib beruvchi keng hajmli va chuqur tadqiqotlarni olib bormasdan, mijozning amaliy ehtiyojlari, masalan, savdo tashkiloti, vazirlik yoki idora, harbiy kasalxonasi yoki umumta'lim maktabi bilan ish ko'radi. Amaliy psixologlarning asosiy ish vositasi - treninglar, xususan: psixodrama, jismoniy treninglar, NLP-treninglar, o'zini o'stirish treninglari, ijtimoiy o'zaro munosabatlar treninglari, geshtalttreninglar, shaxsiy o'sish treninglari va biznes-treninglar, autotreninglar va qobiliyatlarni rivojlnirish treninglari, ota-onalar va bolalar uchun treninglar.

Amaliy psixologyaning bir qismini qator masalalarni, jumladan, ish bo'yicha yuzaga keladigan qiyinchiliklar (ishdan qanoatlanmaslik, hamkasblar va boshliqlar bilan kelishmovchiliklar, ishdan bo'shatilish imkoniyati, yangi ish izlash muammolari), shaxsiy hayotdagi tartibsizliklar oiladagi ixtiloflar, baynalminal oilalarning muammolari, maktab yoki oliygohdagi yomon o'zlashtirish, ota-onalar va bolalar munosabatlarining muammolari, o'ziga nisbatan ishonch va hurmatning





yethmovchiligi, shaxslararo munosabatning o'rnatilishi va mustahkamlashdagi qiyinchiliklarni hal etuvchi – psixologik maslahat tashkil etadi.


1989-yilda O'zbekistonda amaliyotchi psixologlarning yetishmasligi sabab Nizomiy nomli T.D.P.U.da amaliyotchi psixologloglar tayyorlash fakulteti ochildi. O'zbekistonda psixologik xizmatning rivojlanishida Ye.G'oziyev, M.G.Davleshyen, G.B.Shoumarov, V. M. Karimova, Sh. R.Baratov, Ye.H.Sattarov, F.S.Ismagilova, Z.T.Nizamova, H.S.Safо yev, F.L.Xaydarov, B.R.Qodirov, S.X.Jalilova, va boshqalar fan rivojida o'z hissasini qo'shgan va hozirga qadar o'z izlanishlarini davom yettirmoqda. 1998 yilda Sh.R. Baratov "Ta'lim tizimida va ishlab chiqarishda psixologik xizmatni tashkil yetishning psixologik xususiyatlari" mavzusida ish olib bordi va doktorlik dissertasiyasini yoqladi.

Ayniqsa mamlakatimiz xalq xo'jaligiga bo'lajak hodimlarni tayyorlashda bosh bo'g'in bo'lmish xalq ta'limi tizimida psixologik amaliyotning yo'lga qo'yilganligi, Xalq ta'limi vazirligi tasarrufida „O'quvchilarni kasb- hunarga yo'naltirish va psixologik - pedagogik Respublika tashhis markazi“ ning tashkil etilganligi va barcha viloyatlarda uning viloyat, tuman bo'limlarining ishlashi, joylarda „Psixologik xizmat“ markazlarining faoliyat ko'rsatishi, bu muassasalarda xizmat qilish uchun respublikamizning yetakchi ilmiy dargoxlarida: M.Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Miliy universiteti, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti va viloyatlardagi bir qator oliy o'quv yurtlarida amaliyotchi psixolog mutaxasislarning taylorlanayotganligi bunga yaqqol misol. Shuningdek, respublikamizda o'zining ilmiy psixalogik saloxiyatiga ko'ra chet – el amaliyotchi psixologlar bilan baxslasha oladigan, ilg'or chet-yel psixologik markazlarida amaliyotlarini o'tagan psixolog mutaxassis, olimlarimizning mavjudligi, ular o'z faoliyatlarini maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirishlari uchun yetarlicha ilmiy uslubiy bazaga yegaligi kabilar, pespulikamizda amaliy psixalogiyani rivojlantirish istiqbolli yekanligidan dalolat beradi.

Inson ruxiyati, unga ta'sir kursatishi, boshqarish usullarini bilmay turib, ijtimoiy hayotni boshqarib bo'lmaydi. Xozirgi hayotimiz shunday bosqichdagi, ijtimoiy hayotni maqsatga muvofiq boshqarishni hayotda katta axamiyat kasb yetmoqda. Shu munosabat bilan umumpsixalogik savodxonlik kun tartibiga qo'yilishi tabiiy. Chunki psixologik savosizlik-bu avvolo o'zgalar bilan tug'ri muloqatga kirisha olmaslik, uz-uzini va ijodiy jarayonlarni boshqara olmaslik, doimiy stress (ruxiy tanglik)ni keltirik chiqaradi. Shunoing uchun xam amaliy psixologlar, avvalo keng axoli o'rtasida psixologik savodxonlik kabi savodli ishni amalga oshirishni zu zimmalariga olishlari zarur.

### **Psixolog jamiyati va assosiatsiyasilarining shakllanishi**

"O'zbekiston psixologlari assosiasiysi 2001 yil 18 yanvarda tashkil topgan bo'lib, ixtiyoriligi, a'zolari tengligi, o'zini o'zi boshqarish, qonuniylik va oshkorralik asosida faoliyat yuritadigan jamoat tashkilotidir. Psixologlar assosiasiysining





maqsadi O'zbekiston Respublikasi aholisiga markazlashtirilgan psixologik xizmatni yaratish, psixologlarning faol amaliy va ilmiy-amaliy faoliyatini jalg qilishdir.

Xalqaro analitik psixologiya assosiasiyasi (International Association for Analytical Psychology, IAAP) - xalqaro kasbiy uyushma, K.G Yung ananalari bo'yicha analitik psixologlarni birlashtirgan. Uyushma 1955 yilda tashkil etilgan Syurixda joylashgan. 28 mamlakatdan ishtirokchilarni birlashtiradi.

IAAPning asosiy maqsadlari butun dunyo bo'ylab analitik psixologiyaning g'oyalari va amaliyotini kengaytirish, shuningdek, milliy guruhlar ishtirokchilari bo'lgan analitik psixologlarni tayyorlash va amaliyotida mutaxassislar jamoasida universal professional, ilmiy va axloqiy standartlarni belgilashdir.

Amerika Psixologiya Assosiasiyasi (angl. American Psychological Association, APA) dunyodagi professional psixologlarning yeng kuchli assosiasiyalaridan biridir, a'zolari Qo'shma Shtatlar va Kanada mutaxassislari. Uning qariyb 150 ming a'zosi bor, tashkilotning byudjeti taxminan 70 million dollarni tashkil qiladi. "Missiya" - "Psixologiyani ilm-fan, kasb-hunar va farovonlikni oshirish, aqliy salomatlik va odamlarni tarbiyalash vositasi sifatida targ'ib qilish".


APA 1892 yil iyul oyida Klark universitetida 26 nafar psixolog tomonidan tashkil etilgan bo'lib, birinchi prezidenti G. Stanle Xoll yedi. Hozirgi kunda Assosiasiya fan va amaliyot sohasida 54 ta, AQSh va Kanadada 58 ta mintaqaviy vakolatxonalaridan iborat. Prezidentni saylash har yili o'tkaziladi.

Yevropa eksperimental ijtimoiy psixologlar assosiasiyasi (angl. Yeuropean Association of Experimental Social Psychology, YeAYeSP) — xalqaro tashkilot, Yevropaning olimlarini ijtimoiy psixologiya sohasida birlashtirgan. Assosiasiyasi To'liq a'zolik yashayotgan va Yevropa mamlakatlarida ish doktorlik darajasiga yega tadqiqotchilar uchun mavjud; Tegishli a'zolar dunyoning boshqa qismlaridan kelgan fan doktori bo'lishi mumkin. a'zolik maxsus turi (ko'p to'rt yil davomida) doktorlik dissertasiyasi ustida ish professionallar uchun mo'ljallangan. 1968 yilda Assosiasiya 62 ta olimdan iborat yedi; 2005 yilning birlashmasi 659 to'liq a'zolari, doktorlik talabalar 238 nafar a'zo va 130 mos keladigan a'zo bor. Yeng ko'p olim Gollandiya, Germaniya va Buyuk Britaniyaga topshirildi. Assosiasiya 1966 yilda Parij yaqinidagi Royomon Abbeyda o'tkazilgan yeksperimental ijtimoiy psixologiya bo'yicha uchinchi Yevropa konferensiyasida tashkil etilgan.

Jahon psixatriya assosiatsiyalarining maqsadi

Jahon Psixiatriya Assosiasiyasi quyidagi maqsadlarni belgilaydi:

- ❑ ruhiy salomatlik sohasida ishlash va ruhiy kasallarga yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni kengaytirish;
- ❑ aqlan kasallikkha ko'mak berishni yaxshilash;
- ❑ ruhiy kasalliklar profilaktikasini amalga oshirish;
- ❑ aqliy salomatlikni saqlash;
- ❑ aqlan kasalliklarning huquqlarini himoya qilish;





❑ psixiatriya yordami, ta'lif va tadqiqotlar sohasida yeng yuqori axloqiy standartlarni ishlab chiqish va rioya yetilishini rag'batlantirish;

❑ psixiatriya yordami, ta'lif va tadqiqotlarda yuqori sifat standartlarini ishlab chiqishni rag'batlantirish va ushbu standartlarga rioya qilish;

❑ aqlan kasallikka ko'mak berishda kamsitmaslik (tenglik) ni rag'batlantirish;

❑ psixiatrlarning huquqlarini himoya qilish.

Keyinchalik psixologiya sohasidagi ilmiy ishlar faollashtirildi. 1956-yildan boshlab «Voprosy psixologii» jurnalining chiqa boshlashi buning guvohidir. Psixologiya masalalari sohasidagi ko'p materiallar, shuningdek, «Semya i shkola», «Doshkolnoye vospitaniye», «Nachalnaya shkola», «Psixologicheskiy jurnal», «Voprosy psixologii» jurnallarida va boshqa davriy matbuotda bosilib chiqib turdi. Ilmiy ishlarning faollashtirilganligi, shubhasiz, 1957-yil Psixologlar Jamiyatini tuzishga yordam berdi. Shu yillar mobaynida bizning oliy o'quv yurtlarimiz psixologiyadan zaruriy o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlandi.


Bu qobiliyatiarga kiruvchi yesda olib qolish qobiliyatiarida ayrim zvenolarning xarakteristikasi berilgan. Yesda olib qolishda qatnashuvchi fikrlash jarayonlariga alohida ye'tibor berilgan.

Munozaralarning yeng muhim yakuni haqiqatan ham ilmiy psixologiyani yaratish vazifasi yedi. Munozaralar shu narsani ko'rsatdiki, buning uchun o'sha davr metodologik merosini, psixologiya sohasiga bevosita daxldor bo'lgan ta'lilotini puxta o'rganish va yegallab olmoqiari kerak yedi, ikkinchidan, psixologlar psixologiya sohasidagi barcha tarixiy meros va yutuqlarni o'rganish bilan shug'ullanishlari va bu yutuqlarni tanqidiy o'ziashtirib olishlari kerak yedi va uchinchidan, o'tmishda yerishilgan yutuqlarga asoslanib turib, ilmiy psixologiya muammolarini ishlab chiqishni ilgari surmoqlari kerak yedi.

Munozara natijasida o'sha davr psixologiyasida haqiqatan ham qayta kurash ishlari boshlandi. Psixologyaning metodologik va asosiy muammolari bo'yicha asarlar yozildi, bir qancha burjua psixologiyasi nazariyalari tanqidiy ravishda yoritildi. Bir qancha eksperimental ishlar qilinib, ularda psixik jarayonlar sifat jihatidan o'ziga xos hodisalar deb tushunildi, ular organizmning reflekslari va reaksiyalariga tenglashtirib qo'yilmadi.

Ikkita o'quv qo'llanmasi munozaralardan keyin psixologyaning qayta ko'rilganligini ko'rsatuvchi yaqqol dalil yedi. Bularidan birini professor Kornilov («Psixologiya I-nashri 1934 va 2-nashri 1935-yillarda) ikkinchisini yesa professor S. L. Rubinshteyn («Osnovy obshuey psixologii», 1935-yil) tuzgan yedi.

Bu asarlarda psixologiya masalalari munozaralargacha bo'lgandan boshqacharoq talqin qilindi. Xususan, professor Kornilov, bu kitobida psixologiya predmetini tushunishni keskin o'zgartirdi, ayrim psixik jarayonlar yesa yendi organizm reaksiyalarining kombinasiyasi deb talqin qilinmaydi. Bu psixologiyada yemosiyalar, iroda va xarakter psixologiyasiga ham o'rinn beriladi.





30-yillarda psixologlar psixikani eksperimental o'rganish yuzasidan ko'p maxsus laboratoriya va xonalar tashkil qildilar. Bunday laboratoriyalar faqat markaziy shaharlar (Moskva, Leningrad)dagina yemas, balki olis viloyatlar hamda milliy respublikalar, shaharlarida ham tashkil qilindi.

Shu davrda O'zbekistonda ham yeksperimental laboratoriya va xonalar tashkil qilina boshladi. Toshkentda O'rta Osiyo Davlat universiteti huzurida, O'rta Osiyo Kommunistik universiteti, temiryo'l transport boshqarmasida va Magnat instituti huzurida laboratoriyalar tashkil qilingan. Samarqand shahridagi o'zbek pedinstitutida ham boy jihozlangan laboratoriya tashkil qilingan yedi.

Bu davrda professor Lazurskiy kashf yetgan juda foydali tabiiy yeksperimentni qo'llab, bolalar psixologiyasi va yeksperimental psixologiya sohasida ko'plab yeksperimental tadqiqotlar o'tkazdilar.

Ayrim psixik jarayonlar va ularning funksiyalarini o'rganish sohasida ham bir qancha ishlar qilindi. Masalan, V.A. Artemovning idrok sohasidagi, Ye.A. Ribnikov va A.N. Leontevlarning xotira sohasidagi, L.S. Vigoskiyning tafakkur sohasidagi tadqiqotlari va boshqalar shular jumlasidandir.

Mehnat psixologiyasi sohasida ham juda ko'p ishlar qilindi. Ular faqat xona va laboratoriyalardangina yemas, balki bevosita ishlab chiqarishning o'zida, zavod, fabrikalarda, shu jumladan, O'zbekiston paxta dalalarida ham o'tkazildi.

Bu davrda hayvonlar psixikasini o'rganish sohasidagi ishlar ham kuchli sur'atda avj oldirildi. Bu jihatdan Ladngina Kot Voytonis va boshqalarning ishlari, ayniqsa, qimmatlidir.

Shu yillari psixologiyaning deyarli hamma sohalarini: psixika, psixika va ong taraqqiyoti haqidagi, sezgi, idrok, xotira kabilalar haqidagi ta'limotlarni qamrab oluvchi bir qancha katta asarlar nashr qilindi. Bularidan yeng muhimlari quyidagilardir: «Psixologiya», prof. K.N. Kornilov, B.M. Teplov va L.M. Shvarslar tahriridagi jamoa asar; prof. S.L. Rubinshteyn «Osnovy obshchey psixologii»; «Psixologiya», Kostyuk tahririda (ukrain tilida), «Obshchaya psixologiya» D. N. Uznadze (gruzin tilida).

Shu narsani ta'kidlamoq kerakki, bu asarlarning ko'pchilik qismi o'sha davr psixologlarining tadqiqotlari materiallari asosida yozilgan. Urushgacha davrda o'sha davr psixologiyasi manzarasi mana shundan iborat yedi.

### 1950-1965-yillarda psixologiya masalalari?

1950-yillarda psixologiya fanining rivojlanishida I.P. Pavlovnning fiziologiya sohasida olib borgan ilmiy tekshirishlariga katta ye'tibor berildi. Chunki psixik jarayon va xususiyatalarni ilmiy jihatdan o'rganish, uning fiziologik mexanizmini o'rganishni taqozo qilar yedi. Bu o'rinda I.P. Pavlovnning oliy nerv faoliyati, uning xususiyat va qonuniyatları haqidagi ta'limoti muhim ahamiyatga yega yedi. Lekin bu davrda Pavlov ta'limotini ba'zi flziolog va psixologlar mexanistik ta'limot deb hisoblar yedilar. Haqiqatdan ham Pavlovnning ba'zi shogirdlari va izdoshlari mexanistik qarashlarga berilib, psixik hodisalarni fiziologik hodisalardan iborat deb,





psixologiyani oliy nerv faoliyati fiziologiyasiga tenglashtirib qo'ydilar. Bunday qarashlar izlanishlari olamshumul ahamiyatga yega bo'lgan psixologlar tomonidan tanqid qilindi va qoralandi.

I.P. Pavlov psixik hodisalarining, jarayon va xususiyat laming nerv-fiziologik mexanizmi oliy nerv faoliyati bilan bog'liqligini asoslab berdi.

O'sha vaqtarda butunittifoq Fanlar Akademiyasi va Tibbiyot (medisina) Fanlar Akademiyasi sessiyalarida Pavlovning oliy nerv faoliyati haqidagi ta'limotini psixologiyaga tatbiq yetish masalasi ilgari surildi va uni psixologik hodisalarini ilmiy jihatdan tushunishdagi ahamiyati yoritib berildi.

Ayniqsa, Pavlovning bosh miya po'stida yangi muvaqqat nerv bog'lanishlarining hosil bo'lishi haqidagi ta'limoti, qo'zg'alish va tormozlanish qonuniyatlari haqidagi ta'limoti psixologiya uchun juda samarali bo'ldi. Pavlovning inson bosh miyasi po'sti faoliyatidagi ikki signal sistemasi haqidagi ta'limoti ham qimmatlidir. Bu ta'limot inson ongingin tafakkur va nutq singari yuksak shakllarining nerv fiziologik mexanizmlarini aniqlash imkoniyatini beradi. I.P. Pavlovning oliy nerv faoliyatining tiplari haqidagi ta'limoti tempenamentning nerv-fiziologik asoslarini, uning muhit va tarbiya ta'siri tufayli o'zgaruvchanligini aniqlash imkoniyatini berdi.

Psixologyaning metodlari haqidagi masala, xususan o'z-o'zini kuzatish metodi haqidagi masala, psixologiyada metodning obektivligini qanday tushunmoq kerakligi haqidagi masala juda ham keskin qo'yildi. Metodning obektivligini faqat tashqi kuzatish, tashqi eksperiment debgina tushunmaslik kerak, aksincha bu yana bixevoirizm va refleksoiogiyaga olib keladi.

Ikki Akademianing Pavlov fiziologiyasiga bag'ishlangan sessiyasidan keyin har xil psixik hodisalarining nerv-fiziologik mexanizmlarini o'rganish bo'yicha ko'plab maxsus tadqiqotlar o'tkazildi. Bu ishlar Moskva va Leningrad akademiyasining psixologiya institutida, Pedagogika Fanlari akademiyasining psixologiya institutida, shuningdek, boshqa shahariardagi oliy o'quv yurtlarining ba'zi bir kafedralarida va laboratoriylarida o'tkazildi. Psixologiyani Pavlovning oliy nerv faoliyati haqidagi ta'limoti asosida qayta tashkil qilish V.A. Artemov, T.P. Yegorov, A.V. Zaporojes, P.I. Ivanovlarning psixologiyadan o'quv qo'llanmalarida ham o'z aksini topgan. Mana shularga binoan o'rta va oliy o'quv yurtlarida psixologiyani o'qitish ishlari ham qayta tashkil qilina boshladi.

1962-yili Fanlar Akademiyasining huzurida oliy nerv faoliyati va psixologyaning falsafiy masalalari bo'yicha Butun Ittifoq kengashi o'tkazildi, Bu kengashda I.P. Pavlov ta'limoti psixik jarayonlarning nerv-fiziologik asosi yekanligi yana bir marta asosli ravishda tasdiqlandi va uning tadqiqotlari yuksak darajada tashkil topgan materiyaning — miyaning mahsuli bo'lgan psixika haqidagi ta'minotni tasdiqladi.

Keyingi yillarda fiziologlar tomonidan inson psixikasidagi ayrim hodisalarini tushuntirish uchun katta ahamiyatga yega bo'lgan ishlar qilindi. Masalan, akad. P.K.





Anoxin 1932-yildayoq boshlagan teskari afferentasiya (teskari bog'lanish) ning ahamiyatini aniqladi.

Reflektor jarayonlar organizmning faqat javob harakati bilangina tugallanib qolmas yekan. Organizmning har bir javob harakati miya po'stiga markazga intiluvchi teskari (afferent) impuls yuborib turadi, bu impuis javob harakatning natijasidan miya po'stiga signal berib turar yekan. Shu refleksning strukturasi yoy shaklida yemas, balki halqa shaklida yekan, deb hisoblashga asos beradi. Demak, refleksning teskari bog'lanishni amalga oshiradigan yana 4-qismi (orqaga qaytaruvchi krani) ham bor yekan. Teskari afferentasiya haqidagi bu ta'limot «oldindan aks yettirish» (javob harakatni maqsadga muvofiq qilishni bilish) deb atalgan hodisaga bog'langan tekshirishlar o'tkazishga imkoniyat berdi. Anoxinning shu tadqiqoti maqsadga muvofiq yo'naltirilgan xatti-harakatiarning fiziologik asosini ochib beradi.

Bir qancha psixik hodisalarni tushuntirish uchun Bernshteynning organizmning biologik faolligi masalasi sohasidagi tekshirishlari muhim ahamiyatga yegadir. Bu tekshirishlarning ma'lumotlariga qaraganda organizm muhitga moslashmaydi, balki shu muhitda paydo bo'lgan to'siqlarni bartaraf qilishga «tirishadi» maqsadga erishmoq uchun kurashadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Barotov Sh.R. Ta'linda psixologik xizmat. -Buxoro, 2007.
2. Nishanova Z.T. Psixologik xizmat. -T.: TDPU, 2006.
3. История психологической службы
4. Шмелева И.А. Введение в профессию. Психология: учебное пособие. / И.А.Шмелева. – СПб.: Питер, 2007.

